

ONA YURT

Izzatilla Zohidjonov Sunnatilla o'g'li

272-maktab 11-sinf o'quvchisi

**Annotasiya:**Ushbu maqola orqali yurtimizga katta hissasini qo'shgan jadidlar to'g'risida eslanadi va Maqola mazmuniga mos har xil sitata va iqtiboslar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:**ona yurt,diyor,

Vatan go'yo biz yashab yurgan ona tuprog'imiz.U shunchalik mehribonki,biz uchun sersuv soylarini,yam-yashil ko'kalamzorlarini,chiroyli tabiatini berib qo'ygan.Ba'zida mana shunday go'zalikka biz putur yetkazamiz yoki xoinlar tomonidan o'z yurti sotiladi,afsus.

Bizning asl vatanimiz 2 ta aslida biri jannat bo'lsa,ikkinchisi o'z tug'ilgan ona zaminingdir.Nega unda vatanni onaga qiyoslashadi?Ona o'z farzadini aybi bo'lsada berkitgan,issiq-sovug'idan tun-u kun xabardor bo'lgan buyuk zot.Aslida,vatan ham ana shunday.O'z yeridagi aholini,insonlarni ularni sotsa ham,yerlariga ozor bersa ham kechiraveradi,go'yo.

Haqiqiy vatanni sevgan inson avval o'zligini himoya qila olgan,keyin ota-onasini,farzandlarini,oilasini qo'rqlay olgan inson o'z vatanini,albatta,mardlarcha himoya qila oladi.Vatanga xizmat qilish juda katta jasorat va savobli ishdir.Buyuk jadidlarimiz mana shu vatanimiz uchun o'z jonlarini berishga tayyor bo'lib ketdilar.Ularning asosiy maqsadi bolalarim ilmli bo'lsin,ota-onasini va vatanini qo'rqlay oladigan qo'eqmas insonlar bo'lsin deya o'tib ketishdi.Ular nega kuyib-pishib yondi.Mustaqillik ularga nimaga kerak edi aslida?Har bir inson vatani,ota-onasi,farzandlari oldida burchi va majburiyatlari bo'lgani kabi ularda ham ona yurti oldida katta burch va majburiyatlari bor edi.Ular hech bir yov va dushmanidan qo'rqmay o'z asarlari orqali insonlar ongini uyg'otishga harakat qildi.Aslida esa,har bir asrning o'z jadidlari bo'ladi.Faqat biz ularni vatan uchun jon fido qilganlardan so'ng eslashga odatlanib qolganmiz

Bir qaragam, onam bo'lib tuproq yo'ldan ortimdan ergashib kelayotir, "Ketma, bolam!" deya...

"Xolang qarib qoldi... o'zim ham... ketma!..."

Bir qaragam, amakimga aylanibdi, qo'lida hassasi, yelkasida to'ni, kaftini ko'ziga soyabon qilib yo'limga qarab turibdi: "Bolam, keksaydim, suyaklarim qaqshaydi... kelib bir ko'rib ketsayding. Kim bilsin, diydor yana nasib qiladimi-yo'qmi?"

"Qara, bolajon, uzumlarning barglari qip-qizil tus oldi, kuz uni qirmizi rangga bo'yab qo'ydi. Orasida husaynilari oltinday tovlanib turibdi. Ikkitasini senga ilinib, qush cho'qimasin deya latta bilan o'rab qo'yganman, og'zing tegib qolsin deb..."

Ana shunda... o'sha qushlarim gur etib havoga ko'tariladi, samoda aylanib charx uradi.

Qishloq esa yig'laydi.

"Ulug'larim dunyodan o'tib ketishdi-ku, sen qaydasan?"

Do'stlaring ham kap-katta kishi bo'lib qolishdi... ko'chada ko'rsam, chopib borib yelkasidan olib so'rashaman, sen yo'qligingda o'shalar ham ko'zimga o'tday ko'rinadi-da.

Hatto osmon ham seni so'rayotganga o'xshaydi. "Bir bolang bo'lardi, quyoshda qoraygan, qoramag'iz. Shaftoli shoxiga chiqib olib rosa qichqiradiganing... o'sha qani?" deydi.

Yomg'irlar izingni so'rashadi, "suvlarni sochib o'ynaydigan bolang qayda" deya.

Daraxtlar muztar-muztar turishadi, "mevalarimiz pishganida shoxlarimizni egib-egib yeydiganing yo'g'-a?" deb?

Shamollar sadolanishadi: "Esganimizda bizga qo'shib qichqirib chopadigan kichkinang nega ko'rinmayapti?"

Tomga tirab qo'yilgan eski shoti ham seni so'rasa, men nima qilay?"

\* \* \*

Jon olg'uvchi u nozanin ana o'shanday tarzda ming evrilib, ming o'rgildi, har safar har xil qiyofada jonlanib, shunaqangi ko'p narsalarni ongimga ro'para qildi-ki!

Yo'qsa, el qatori, oddiy bir qishloq-da, masalan, tog' yonbag'irlarida undan yuz karra suluvroq boshqa qishloqlar ham bor, ammo o'shaning jilvalari jonimni qiynasa nima qilay?

Kishilar ham allaqachon boshqa qiyofaga kirib olishibdi – hammasi ajoyib, benihoya yaxshi odamlarga aylanishibdi.

Modomiki, yaxshi kuningda quvnab, qiyin kuningda yuqingni ko'targan o'sha kishilar qatorida emas ekanman, bir kuni shamolingga aylanib ustingdan yelib o'tarman, munisim!

"O'g'ilginam shamol bo'lib keldi" deb suyunarsan, o'tloqlaringga qo'ngan shudring misoli ko'z yoshlaring aro.

Shamolga aylanganimda, o'zimning uyur-uyur bulutlarimni ham surib kelarman, unumdor tuprog'ing uzra hech bo'lmasa yomg'ir bo'lib yog'ay deb?

Yomg'ir oldidan bir nafasga hamma yoq jimib qoladi. Bilaman, hozir ham shunday: qaqragan tandirlar, sarg'aya boshlagan ekinlar, turli-tuman mevaliyu mevasiz daraxtlar, o'tlar, qushlar... hammasi hayotbaxsh yomg'ir yog'saydi deb bir nafas jim qolishganday.

Ana shunda men ham yog'a boshlarman tuproqlaring uzra, bag'ringga tamomila singib ketish uchun!

Bir kuni shu qadrdon tuprog'ing uzra bir o't, bir maysa bo'lib unib chiqish uchun... azizim mening!

Ana o'shanda... yana bir jonbaxsh qo'shiq taralar, oq gullarga burkangan novdalarni egib-egib, gulkosalarni to'kib-to'kib, suvlar ustida kichkina pufakchalar hosil kilib-qilib yog'uvchi yomg'irning salqin epkinlari, turli-tuman gul-chechak islari aro, tuproqko'chalar, baland teraklar, paxsaliyu somon suvoqli uylar uzra.

Axir, yoqimli u yomg'ir allaqachon yog'a boshladi-ku, sezmayapsizmi?

Barnolar ichra barno, Ra'no,

Gulmisan, gulyormisan,

Hamma gullardan a'lo, Ra'no...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Isajon Sulton "Ona yurt" hikoyasi

2.ziyouz.com sayiti